

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 77 573,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda 7,3 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan 107,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent viloyatining qo'shgan hissasi 9,6 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	67 219,5	77 573,3	107,3
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	64 828,6	75 290,8	107,2
mahsulotlarga sof soliqlar	2 390,9	2 282,5	109,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	64 828,6	75 290,8	107,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9 847,9	11 355,1	104,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	34 962,3	40 495,7	107,7
sanoat	29 376,7	33 483,4	105,7
qurilish	5 585,6	7 012,3	118,3
xizmatlar	20 018,4	23 440,0	107,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6 098,6	7 396,4	112,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 395,6	4 297,6	112,5
boshqa xizmat tarmoqlari	10 524,2	11 746,0	103,5

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 24 852,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 105,4 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,4	97,1
mahsulotlarga sof soliqlar	3,6	2,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	15,2	15,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	53,9	53,8
sanoat	45,3	44,5
qurilish	8,6	9,3
xizmatlar	30,9	31,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9,4	9,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,7
boshqa xizmat tarmoqlari	16,3	15,6




2025- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,9 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 15,1% ni, sanoat tarmog'i 44,5 % ni, qurilish 9,3 % ni va xizmatlar sohasi 31,1 % ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,6 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,5 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 3,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,5 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,8 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,3 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 1,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2024- yilning yanvar-iyunida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,3 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 15,1 %), sanoatda – 105,7 % (44,5 %), qurilishda – 118,3 % (9,3 %), xizmatlar sohasida – 107,7 % ni (31,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,5 % (9,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,5 % (5,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,5 % dan (15,6 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



7,6 %

YAHM

7,3 %



4,0 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,3%



7,1 %

Sanoat

5,7%



11,8 %

Qurilish

18,3 %




9,9 %

Xizmatlar

7,7 %

2025- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 107,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 110,6% vaxizmatlar soxasida – 108,7 % qayd etildi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik 39 269,7 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 33 573,3 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 52,2 % ni (2024- yilning yanvar-iyun oylarida – 51,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

33573,3

51,8 %

2025- yil

39269,7

52,2 %

